



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Жиззах вилояти

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko'chasi, 1-uy, Tel. +99878 771-70-15, Faks: +99878 771-70-15, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Kulmuradov Yusup Baxriyevich

Sana: 23-09-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 62438

Obyekt nomi «Jizzax viloyati Zomin tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli sil kasalliklariga qarshi kurashish dispanseri tashqi ichimlik suvi tizimini joriy ta'mirlash»

Buyurtmachi - Zomin tumani tibbiyot birlashmasi

Bosh loyihachi - "JIZZAX BUNYODKOR LOYIHA" MChJ

Litsenziya AL-000761. O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi 2020.05.26

Moliyalashtirish manbai - Mahalliy budjet mablag'lari hisobidan.

Bosh pudratchi - Tender tanlovi asosida.

Qurilish turi Joriy ta'mirlash.

Murojaat raqami: № 57924

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. "Zomin tumani tibbiyot birlashmasi" tomonidan 07.06.2022-yilda tasdiqlangan "Loyiha topshirig'i";
- 1.2. "Zomin tumani tibbiyot birlashmasi" tomonidan 2022-yilda tasdiqlangan "Nuqsonlar dalolatnomasi".

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

- 2.1. "Zomin tumani tibbiyot birlashmasi" tomonidan tasdiqlangan bajariladigan ishlar uchun "Nuqson dalolatnomasi", ekspertiza ko'rigidan o'tqazish uchun buyurtmachining xati.
- 2.2. Smeta xujjatlari (Yig'ma resurs smetasi va lokal resurs qaydnomasi).

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Ishchi loyiha smeta hujjatlari buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan "Nuqsoniy dalolatnoma", loyihachi tashkilot "Jizzax bunyodkor loyiha" MChJ tomonidan obektni joyda o'rganib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

3.2. Loyihaviy tadbirlar:

Sil kasalliklariga qarshi kurashish dispanserining suv ta'minoti mavjud artezian suv qudug'i orqali amalga oshirib kelingan. Yer osti suv sathi pasayib ketilishi natijasida dispanserga kerakli bo'lgan suv miqdorini yetqazib berishda uzulishlar kuzatilgan. Dispanserga doimiy suv ta'minoti ta'minlash maqsadida mavjud artezian suv qudug'ini ta'mirlash va 650 m masofadan diametri 50x3,7mm P/E quvur orqali tashqi suv tarmog'i tortib kelish ishlari ko'zda tutilgan. Qo'shimcha suv tarmog'i joylashuvi buyurtmchi, loyiha tashkiloti va "Jizzax suv ta'minot" MChJ Zomin tuman filiali bilan kelishilgan.

4. Loyihalana yotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. "Jizzax viloyati Zomin tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli sil kasalliklariga qarshi kurashish dispanseri tashqi ichimlik suvi tizimini joriy ta'mirlash" smeta xujjatlarida quyidagi muhandislik ta'minoti ishlari rejalashtirilgan:

- 650 m masofadan diametri 50x3,7mm P/E quvur orqali tashqi suv tarmog'i tortib kelish;
- Mavjud suv qudug'ini ta'mirlash.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Tashqi suv tarmog'i tizimi buyurtmachi tashkilot, loyiha tashkiloti va "Jizzax suv ta'minot" MChJ Zomin tuman filiali bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilingan.

6.2. Ob'ektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar (2022 yil 2-chorak), amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko'ra) narxlarni xisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim qilingan.

6.3. Ishchi loyiha smeta hujjatlari buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan "Nuqsoniy dalolatnoma", loyihachi tashkilot "Jizzax bunyodkor loyiha " MChJ tomonidan obektning joyda o'rganib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Smeta xujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- Loyihalash topshirig'i ishlab chiqilmaganligiga, qo'shimcha suv tarmog'i joylashuvi "Jizzax suv ta'minot" MChJ Zomin tuman filiali va buyurtmachi tashkilot bilan kelishilmaganligiga, yig'ma resurs smetasida mashina - mexanizmlar xarajati yig'indisida xatolikga yo'l qo'yilganligiga va ba'zi bir qurilish materiallari narxlar shakllanishiga e'tiroz va takliflar berildi (batafsil ma'lumot uchun berilgan e'tirozga qaralsin).

6.4. Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati QQS bilan birga xisoblaganda buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz - **40 025,384** ming so'm taqdim etilgan. Smeta hujjatlariga berilgan e'tirozlar va takliflar loyihachi tashkilot tomonidan o'rganilib chiqilib bartaraf etilgandan so'ng ya'ni loyihalash topshirig'i ishlab chiqilgan, qo'shimcha suv tarmog'i joylashuvi "Jizzax suv ta'minot" MChJ Zomin tuman filiali, buyurtmachi va loyiha tashkilot bilan kelishilgan hamda ba'zi bir qurilish materiallari narxlariga aniqlik kiritilishi natijasida obekt baxosi QQS bilan birga - **593,242** ming so'mga kamaydi.

6.5. Lokal ekspert xulosa natijalarini xisobga olgan holda "**Jizzax viloyati Zomin tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli sil kasalliklariga qarshi kurashish dispanseri tashqi ichimlik suvi tizimini joriy ta'mirlash**" bo'yicha tayyorlangan smeta hujjatlarini kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 15 % QQS bilan xisoblaganda umumiy miqdorda - **39 432,142** ming so'm tavsiya etiladi.

Shu jumladan:

- qurilish montaj ishlari xarajatlari - **34 179,445** ming so'm.
- qurilish vaqtida qurilish obektini sug'urtalashga sarflangan xarajatlar - **109,374** ming so'm.
- qo'shimcha qiymat solig'i 15% - **5 143,323** ming so'm.
- jami ishchi-quruvchilar mehnat sarflari - **433,951** kishi/soat.
- qurilish muddati - 2022 yil.

- ishchi quruvchilarning o'rtacha bir soatlik ish xaqi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ chiqarayotgan 2022-yil 2-chorak katalog asosida **15 327,68 x 1,12 = 17 167** so'm ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12 % qabul qilingan. (Ijtimoiy sug'urtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy harajatlari bo'yicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

Ta'kidlash joizki:

a). Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 iyundagi 261-son qaroriga 1-ILOVA "Ob'ektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to'g'risida VAQTINChALIK NIZOM 4-bandi Ob'ekt qurilishining mazkur Nizomga muvofiq buyurtmachi tomonidan aniqlangan boshlang'ich qiymati tanlov savdolari (tenderlar) o'tkazishda yo'nalish hisoblanadi va pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzish uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi.

b). **Buyurtmachiga** loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi:

- pudratchi boshqa xarajatlarning aniq sarfi;

-ish haqi xarajatlarning pudratchi tashkilotning o'tgan 12 oydagi o'rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda bir odam/soat ish haqidan olinganligi.

v) Obektning dastlabki bahosini aniqlashda asosiy mashina-mexanizmlarni ekspluatatsiya qilishning 1 mash/soat narxlari bo'yicha loyihachi tomonidan smetaga kiritilgan narxlar bajarilgan qurilish-montaj ishlari uchun o'zaro hisob-kitoblar uchun asos bo'lib xizmat qila olmaydi, ushbu narxlarni qabul qilish bo'yicha yakuniy qaror ShNQ 4.01.16-09 talablariga, amaldagi me'yoriy hujjatlar hisobga olgan holda buyurtmachi va pudratchi tomonidan birgalikda qabul qilinadi eng maqbul narxlarning qabul qilinishini buyurtmachi tashkilot zimmasiga yuklanadi;

(Mashina va mexanizmlardan foydalanishda mash/soat.ning joriy narxini O'zbekiston Respublikasi Davarxitektkurilish qo'mitasining 06.05.2004 y. 31-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanishda hisoblangan joriy narxlarni aniqlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar" asosida aniqlash tavsiya etiladi).

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan "Qurilish ob'ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to'g'risida vaqtinchalik qoidalar"ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4-bandi).

Tanlov savdolarini o'tkazish uchun tavsiya etilgan dastlabki baxolarni buyurtmachi qabul qiladi.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.8. Buyurtmachi tashkilot davlat xaridlarini maxsus axborot portalida, ommaviy axborot vositalarida va rasmiy veb-saytlarda tender (tanlov) o'tqazish to'g'risidagi e'lonlarni joylashtirish orqali qurilish pudrat tashkilotlarini keng jalb etishni ta'minlashga ma'sul hamda O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan xaridlarni amalga oshirishda shaffoflik va korrupsiyaga yo'l qo'ymasligini taminlashga javobgardir.

6.9. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.10. Tasdiqlangan nuqson dalolatnomasi xaqqoniyligi va ishonchliligi uchun javobgarlik buyurtmachiga va loyihachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalari va takliflarini inobatga olgan holda "**Jizzax viloyati Zomin tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli sil kasalliklariga qarshi kurashish dispanseri tashqi ichimlik suvi tizimini joriy ta'mirlash**" smeta xujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis: DJURAEV ANVAR LAPASOVICH